

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SOG'LIQNI SAQLASH VAZIRLIGI
RESPUBLIKA O'RTA TIBBIYOT VA FARMASEVTIKA XODIMLARI
MALAKASINI OSHIRISH VA ULARNI IXTISOSLASHTIRISH MARKAZI

«KELISHILDI»

Respublika o'rtta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari
malakasini oshirish va ularni
ixtisoslashtirish markazi
muhojir xay'at raisi
S. Ximova
«12» dekabr 2025 y.



«TASDIQLAYMAN»

Respublika o'rtta tibbiyot va
farmasevtika xodimlari malakasini
oshirish va ularni ixtisoslashtirish
markazi direktori
L.X. Musadjanova
«12» dekabr 2025y.



Bilimlar sohasi: Sog'liqni saqlash

Farmasevt assistenti

(sikl bo'yicha ixtisoslashtirish guruhlar uchun)

O'QUV DASTURI

(216 kredit)

Toshkent – 2025 yil

TUZUVCHILAR:

S.Z.Rashidov TDTU Farmakologiya kafedrası assistenti

Z.E.Xamrayeva Respublika o`rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Jizzax filiali o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari

U.A.Tursunbayeva Respublika o`rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o`qituvchisi

TAQRIZCHILAR:

G`Y.Djanayev TDTU Farmakologiya kafedrası dotsenti PhD

Z.Z.Imamova Respublika o`rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi o`quv ishlari bo`yicha direktor o`rinbosari

O`quv dasturi Respublika o`rta tibbiyot va farmasevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazining Pedagogik kengashida ko`rib chiqildi va tasdiqlashga tavsiya etildi.

«9»122025.y.

bayonnoma № 6

Pedagogik kengash raisi



L.X.Musadjanova

O`quv dasturi direktorlar kengashida ko`rib chiqildi, muhokama qilindi, tasdiqlashga tavsiya etildi.

«12»122025.y.

bayonnoma № 5

1. Kirish

O'zbekiston Respublikasida o'rta tibbiyot xodimlarini tayyorlash, ixtisoslashtirish, tibbiyot muassasalarida hamshiralik ishini xalqaro andozalarga mos tarzda tashkil etish borasida zamonaviy tizim yaratilgan. Mazkur o'quv dasturi O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4310-son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 19 may 2021 yildagi "O'zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o'rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari" PQ-5117 sonli qarori, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i ijrosini ta'minlash doirasida yaratilgan. Sog'liqni Saqlash vazirligining 3 aprel 2018 yildagi №206-sonli "Respublikaning chekka va tog'li hududlardagi davolash profilaktika muassasalari o'rta tibbiyot xodimlarini farmatsevt assistenti mutaxassisligi bo'yicha ixtisoslashtirish kurslarida o'qitish chora-tadbirlari to'g'risida" buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida «Farmatsevt assistenti» qayta tayyorlash (ixtisoslashtirish) 216 soatga mo'ljallangan o'quv dasturi yaratildi.

Dasturda o'quv fanning mazmuni, uni o'zlashtirish shakli va usullari mujassamlashtirilgan. Dastur mazmunida nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallash alohida e'tiborga olingan. "Farmatsevt assistenti" o'quv dasturi yo'nalishining o'quv rejasi asosida tayyorlangan bo'lib, hamshiralarni 216 kredit ixtisoslashtirish uchun mo'ljallangan. Dastur fanlar modullariga ajratilgan bo'lib: kasbiy rivojlanish modulida O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2025 yil 15-avgustdagi "Korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha xodimlarning bilim va ko'nikmalarini yanada oshirish haqida" 255-sonli buyrug'i ijrosini bajarish maqsadida "Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish" moduli kiritildi. Kasbiy rivojlanish moduli ma'naviy va siyosiy dunyoqarashlarini kengaytirishga qaratilgan yangiliklar, shuningdek, sog'liqni saqlash tizimidagi islohatlar, tibbiyot sohasining ilm-fani va amaliyotining rivojlanishi tendensiyalari va yutuqlari, yangi texnika va texnologiyalari to'g'risida ma'lumotlar kiritilib, tibbiy ta'limda uzluksizligi va uzviyligini, fanlar va bo'limlarni ketma-ketligini ta'minlangan holda tinglovchilarni mustaqil ishlashga va fikrlashga qaratilgan o'quv materiallarini qamrab olgan. Dasturda farmatsevt assistenti sifatida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan o'rta tibbiyot xodimlari lozim bo'lgan yangi bilim va ko'nikmalarni (bilishi mumkin, bilishi lozim, bajara olishi kerak va qaysi amaliy ko'nikmalarni o'zlashtirishi lozim) yetarli darajada o'zlashtirishga qaratilgan materiallar taqdim etilgan.

1.1. Maqsad:

O'qish natijasida o'rta tibbiyot xodimlarini yangi kompetensiyalarni shakllantirish, kasbiy faoliyat uchun zarur yangi bilim va ko'nikmalarni rivojlantirish va kasbiy darajasini oshirish. O'quv dastur bo'yicha dorixona muassasalari va turli mulkchilik shaklidagi dorixonalar, tayyor dori-darmonlar, parafarmatsevtik mahsulot va tibbiy buyumlarni, dorivor o'simliklar va ulardan sharbatlar tayyorlaydigan dorilar bo'limlarida, davolash profilaktika muassasalari uchun dori tayyorlaydigan dorixonalarda buyurtmalarni to'plovchi, farmatsevt tovarshunos, dori vositalarini ishlab chiqarish korxonalarida tayyor dori vositalarni qadoqlash va markirovkalash bo'yicha operator lavozimlarida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan o'rta tibbiyot xodimlarini har tomonlama yetuk, kasbiy rivojlantirish moduli bo'yicha yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlariga erishish, ular faoliyatini yanada takomillashtirish. Farmatsiya, farmakologiya fanining eksperimental farmakologiya, klinik farmakologiya, farmakognoziya, farmkimyo, dori tayyorlash texnologiyasi, lotin tili, anatomiya va fiziologiya asoslari va boshqa fanlar bilan bog'liqligini o'rganish. Dori moddalarini izlab topish yo'llari va uning tasnifi, dorivor o'simliklardan, hayvonlardan va kimyoviy yo'l bilan olinadigan dorivor moddalarni o'rgatish bo'yicha yangi

nazariy bilimlarni amaliy ko'nikmalar orqali mustahkamlash va chuqur bilimlarni egallashga qaratilgan.

1.2. Vazifalar:

- O'quv jarayonini modulli tibbiy ta'lim tamoyili bo'yicha, zamonaviy, innovatsion, isbotlangan tibbiyotga asoslangan xalqaro ilmiy-amaliy ma'lumotlarni davlat talablariga mos holda tuzilgan o'quv dasturi bo'yicha tizimli tashkillashtirish va davolash profilaktika muassasalarida ko'rsatiladigan profilaktik, tashhislash va davolash uchun kerakli amaliy ko'nikmalarni mustaqil qo'llashga tayyorgarlikni shakllantirish;
- sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va me'yoriy hujjatlarni ish faoliyatida qo'llay olishga o'rgatish;
- dorixona muassasalari ishini tashkil qilish, dorixonalarda retsept qabul qilish va ular asosida dori vositalarni berish;
- dori vositalarining retseptsiz savdosini tashkil qilish;
- dorixona sharoitda dori vositalarni tayyorlash va sifatini nazorat qilishni tashkillashtirish;
- dorixonalarda dori vositalarini hisobga olish va hisobot inventarizatsiya o'tkazish;
- dorixonada tayyorlangan dori vositalari sifatini yaxshilash usullarini o'rganish;
- dorixona muassasalariga farmatsevtik faoliyati uchun litsenziya berish muammolarini yechish;
- bemorlar hayotiga xavf soluvchi holatlarda shoshilinch tez tibbiy yordam ko'rsatish bo'yicha nazariy bilim va amaliy ko'nikmalarini mukammallashtirish.

1.3. Ta'lim oluvchilar toifasi (kontingenti):

O'quv dasturi bo'yicha davolash profilaktika muassasalarida va dorixonalarining fitobarida faoliyat olib borishni rejalashtirayotgan o'rta tibbiyot xodimlarining malakaviy tavsifnomasi va lavozim yo'riqnomalariga muvofiq, ya'ni mutaxassisligini qayta tayyorlashni rejalashtirgan o'rta tibbiyot xodimlari uchun mo'ljallangan.

1.4. O'quv dasturni o'zlashtira olish uchun zarur bo'lgan tinglovchi kompetensiyasi:

- Farmatsevtik faoliyat bilan bog'liq O'zbekiston Respublikasi Qonunlari, qonunga kiritilgan o'zgartirishlar, Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlardan keng foydalanishni bilish;
- aholiga o'z vaqtida dori vositalar bilan xizmat ko'rsatishning zamonaviy va samarali usullarini qo'llay olish;
- davolash profilaktika muassasalarining dorixonalari va u yerda dori vositalarni tayyorlash, ulardagi kunlik ish yuritish tartiblari, dorixonalarni dorilar va tibbiy vositalar bilan ta'minlanishi, dorilarning sifati va yaroqlilik muddatini nazorat etish va tekshirish tadbirlarini o'tkazish;
- dori-darmonlarning farmakologik xususiyatlarini, ko'rsatma va mone'liklarini bilish;
- dori-darmonlarni to'g'ri saqlash, tarqatish va ta'minlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishi;
- retseptsiz beriladigan dori-darmonlar, tibbiy jihozlar ro'yxatini bilish;
- mutaxassisligi bo'yicha chuqur va yangilangan to'liq nazariy va amaliy bilimlarga ega bo'lgan, uzluksiz o'z malakasini oshirishga tayyor bo'lgan, o'zgaruvchan sharoitlarga tez moslasha oladigan, etika va deontologiya asoslarni bilish va rioya qilish;
- davolash-profilaktika muassasalari dorixonalarida dori tayyorlash va ulardagi kunlik ish yuritish tartiblarini bilishi;
- dorixonaning dori va tibbiy vositalar sifatiga e'tibor berib sifatsizlarini ajrata olishi;
- dori vositalar va tibbiy buyumlarni saqlashni qoida va talablarga binoan amalga oshirishi;
- yangi dorivor o'simliklarni izlab topish va ulardan yangi dorilarni ajratib olish;
- dorixonalarda dori vositalarini hisobga olish;
- dorixonada tayyorlangan dori vositalari sifatini yaxshilash usullarini o'rganish.

1.5. Dasturning dolzarbligi:

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 6 maydagi "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4310 -son va 2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4666-sonli qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi №160 "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi", buyrug'i, Sog'liqni Saqlash vazirligining 3 aprel 2018 yildagi №206-sonli "Respublikaning chekka va tog'li hududlardagi davolash profilaktika muassasalari o'rta tibbiyot xodimlarini farmatsevt assistenti mutaxassisligi bo'yicha ixtisoslashtirish kurslarida o'qitish chora-tadbirlari to'g'risida" buyruqlari ijrosini ta'minlash, uzluksiz kasbiy ta'lim tizimida tibbiy kadrlarni qayta tayyorlash va ixtisoslashtirish, o'rta tibbiyot xodimlarini "Farmatsevt assistenti" mutaxassislari sifatida shakllantirish.

1.6. Dastur hajmi: 216 kredit (kuniga 6 soat, haftada 36 kredit).

1.7. O'qish shakli:

- kunduzgi - o'qish ishdan ajralgan holda.
- on/offline, masofaviy / a'nanaviy o'qish ishdan ajralgan/ ajralmagan holda.

1.8. Mashg'ulotlarni o'tish tartibi:

Mashg'ulotlar "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish to'g'risidagi" O'zR SSV 2020 yil 15 iyundagi № 160 buyrug'i va markazning ichki tartib-qoidalari asosida rejalashtiriladi va amalga oshiriladi.

Mashg'ulotlar 9⁰⁰ da boshlanib, 13⁴⁰ da tamom bo'ladi. Tushlik - 30 daqiqa.

1.9. O'qish tugagandan so'ng beriladigan hujjat: o'quv kursni to'liq o'zlashtirgan va yakuniy attestatsiyani topshirgan tinglovchilarga Davlat talablari namunasidagi sertifikat taqdim etiladi.

2. REJALASHTIRILAYOTGAN TA'LIM NATIJALARI

2.1. Rejalashtirilayotgan ta'lim natijalaridan so'ng takomillashtirilishi (yangilanishi) lozim bo'lgan kasbiy kompetensiyalar:

- hamkasblar, bemorlar bilan muloqotda tibbiy faoliyatning ahloqiy va deontologik jihatlarini amalga oshirish;
- intizomiy, ma'muriy, fuqarolik javobgarlikni amalga oshirayotganda tibbiy xatolarga yo'l qo'yishning oldini olish bo'yicha o'z faoliyati natijalarini tahlil qilishga tayyorligi;
- bemorlar bilan ishlashda foydalaniladigan tibbiy va texnik jihozlar bilan ishlash, shaxsiy kompyuter texnologiyalari, turli manbalardan ma'lumot olish, global kompyuter tarmoqlarida ma'lumotlar bilan ishlash imkoniyati va istagini amalga oshirish;
- kasbiy muammolarni hal qilishda zamonaviy axborot texnologiyalarining imkoniyatlaridan foydalanish;
- tibbiy-ijtimoiy va hamkorlik faoliyatini olib borish, kelishmovchiliklarni hal etish, hamkasabalar, mijozlar bilan to'g'ri muloqot qilish;
- yangi dori-darmonlarning farmakologik xususiyatlarini, ko'rsatma va moneliklari haqida ma'lumot berish;
- aholiga o'z vaqtida dori vositalar bilan xizmat ko'rsatishning zamonaviy va samarali usullarini amalga oshirish;
- dori-darmonlarni to'g'ri saqlash, tarqatish va ta'minlash bo'yicha bilim va ko'nikmalarni yangilanadi;
- dorixona iste'molchiga sifatli dori-darmonlar, tibbiyot jihozlari va bemorlarning parvarishi bo'yicha gigiyenik mahsulotlar bilan ta'minlashishlarini amalga oshirish qobiliyatlari yangilanadi;
- iste'molchi talabini o'rganish va shu asosida omborga talabnoma berish ko'nikmalari yangilanadi;
- iste'molchidan qabul qilingan pullarning kassa operatsiyasi (amaliyoti)ni va pul muomalasi hisobotini yuritish qobiliyati oshadi;

- dori-darmonlarni tayyorlash jarayonida ishtirok etish ko'nikmalari yangilanadi;
- o'rnatilgan tartibda hujjatlarni yuritish;
- kasbiy faoliyatga oid jarayon bosqichlarini amalga oshirish maqsadida yuklatilgan vazifalarni samarali bajarish uchun ish joyini talab darajasida ta'minlanishiga erishish;
- kechiktirib bo'lmaydigan holatlarda shifokorgacha birinchi tibbiy yordam ko'rsatish;
- muassasa va tashkilot rahbariyatiga kasbiy faoliyatni amalga oshirishda yuzaga kelgan muammo va masalalar haqida ma'lumot taqdim etish;
- o'z kasbiy vazifalarni aniq va sifatli bajarish bo'yicha ma'lumot olish, o'rta tibbiy xodim ishini takomillashtirish borasida takliflar kiritish;
- aholining turli qatlamlari orasida sog'lom turmush tarzini shakllantirish bo'yicha ishlarni tashkil etish;
- kasbiy faoliyat doirasida o'z vakolatlari, ma'suliyati va zimmasiga yuklatilgan vazifalarning qonuniyligini anglash.

3. DASTUR MAZMUNI

3.1 "Farmatsevt assistenti" 216 kredit ixtisoslashtirish kursi dasturi o'quv rejasi

№	Modul va mavzular nomi	Kredit	Auditoriya mashg'ulotlari		Attestatsiya
			Nazariy mashg'ulot	Amaliy mashg'ulot	
1.0	Kasbiy rivojlantirish moduli	54	32	22	
1.1	Modul: O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati. Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish.	6	6	-	
1.2	Modul: Tibbiyotda raqamli texnologiyalar	6	2	4	
1.3	Modul: Xorijiy til	6	2	4	
1.4	Modul: Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar.	6	6	-	
1.5	Modul: Infekcion nazorat	6	4	2	
1.6	Modul: Shaxslar o'rtasidagi muloqat va tibbiy maslahat	6	4	2	
1.7	Modul: Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik	6	2	4	
1.8	Modul: Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish.	12	6	6	
2.0	Mutaxassislik fanlar moduli	156	56	100	
2.1	Modul: Farmatsevtika asoslari. O'zbekistonda dorixona xizmatini tashkil etilishi va rivojlanishi.	18	8	10	
2.2	Modul: Farmatsevtika menejmenti. Mahalliy ishlab chiqarilayotgan dori vositalari va ularga qo'yilgan talablar.	24	8	16	
2.3	Modul: Lotin tili terminologiyasini farmatsevtika sohasida qo'llash.	12	4	8	

2.4	Modul: Dori turlari texnologiyasi. Dorixonaga qo'yilgan talablar. Dori vositalarning organizmga ta'siri.	36	12	24	
2.5	Modul: Farmatsevtik kimyo. Dori preparatlarining sifatini nazorat qilishning zamonaviy usullari.	24	8	16	
2.6	Modul: Farmakognoziya. Fitopreparatlar. Xalq tabobatida ishlatiladigan dorivor o'simliklar.	42	16	26	
	Attestatsiya	6			6
	Jami:	216	88	122	6

“Farmatsevt assistenti”

ixtisoslashtirish kursi o'quv modullarining mazmuni

1.1.Modul. . O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosati.Tibbiyot sohasida korrupsiyaning oldini olish. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Oliy Majlis Qonunchilik palatasining Bosh vazir lavozimiga nomzodni ko'rib chiqish va Vazirlar Mahkamasining yaqin va istiqbolga mo'ljallangan Harakatlar dasturi muhokamasiga bag'ishlangan yig'ilishidagi nutqida belgilab berilgan. Sog'liqni saqlash tizimidagi dasturlarni samarali va to'liq amalga oshirishdagi asosiy vazifalar.O'zbekiston Respublikasining tibbiyot sohasidagi davlat siyosatining asosiy ustuvor yo'nalishlari. Yangi O'zbekiston tibbiyoti-yangicha yondashuvlar asosida transformatsiya qilinayotgan tizim.Islohotlar markazida “Inson qadri uchun”degan ezgu tamoyil ustuvor.Yurtimizda aholiga ko'rsatilayotgan tibbiy xizmatlar sifatini jahon standartlari darajasiga olib chiqish maqsadida halqaro tajribani chuqur o'rganish va amaliyotga samarali tatbiq etish borasida olib borilayotgan ishlar.

Yangi O'zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida tibbiyotga doir ustuvor yo'nalishlarning mazmun-mohiyati. “Aholi salomatligi-2030” milliy strategiyasining ustuvor yo'nalishlari,vazifalari va asosiy indikatorlari. O'zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish sohasida shakllangan milliy qonunchilik tizimi, davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlari hamda sog'liqni saqlash tizimida korrupsiyaning oldini olishga qaratilgan amaliy chora-tadbirlar. Davlat siyosatining korrupsiyaga qarshi kurashishdagi asosiy yo'nalishlari. Davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatchilarining mas'uliyatini oshirish, raqamlashtirish orqali inson omilini kamaytirish, ochiq ma'lumotlar tizimini rivojlantirish va fuqarolik jamiyati institutlarining rolini kuchaytirish.

1.2.Modul Tibbiyotda raqamli texnologiyalar. Tibbiyot sohasida kompyuter texnologiyalaridan foydalanishdagi nazariy va amaliy bilimlarni egallash, tibbiy statistik ma'lumotlarni to'g'ri tahlil qilish, tahlil qilingan natijalardan kelib chiqqan holda kasallikning oldini olish yoki davolash yo'llarini aniqlash, axborot texnologiyalaridan foydalanish borasida asosiy amaliy ko'nikmalarga ega bo'lish. Internet tarmog'ida ishlash, axborot qidirish va ulardan foydalanish, tibbiyot axborot tizimlari xususiyatlari, ma'lumotlar bazasini tashkil etish, ekspert tizimlari va axborot xavfsizligi asoslarini bilishi kerak. “Tibbiyot informatikasi asoslari” o'quv fanini o'zlashtirish jarayonida amalga oshiriladigan masalalar doirasida:

- tibbiyot informatikasi asoslari, tushunchalari va tasavvurlarining umumiyliigi;
- axborot tushunchalari va turlari. Tibbiyot masalarini yechishda informatikaning o'rni; hozirgi zamonda informatikaning o'rni va roli, ma'lumotlarni saqlash, qayta ishlash va uzatish

1.3. Modul. Xorijiy til. Ingliz tilini o'qitishning maqsadi va vazifalari Tibbiyot xamshiralari ingliz tilini tanishtirish va tibbiyot soxasiga aloqadorligini tushuntirish xamda shu soxaga oid terminlarni o'rganish. Ingliz tili alifbosidagi xarflar va asosiy qo'llaniladigan terminlar. The verb “to be”, “to have” Introducing yourself. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Tana a'zolarining nomlanishi. Tibbiyotda ko'p uchraydigan kassaliklar, kasallik belgilari xamda tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki

nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Tibbiyot mutaxassislarining nomlarini ingliz tilidagi talaffuzini o'rgatish. Ularni og'zaki nutqda ishlatilishini amaliy mashqlar yordamida o'rgatish va qo'llash. Berilgan qo'llanmalardan foydalangan xolda (At the doctor) mavzularida tinglovchilarni og'zaki nutqini rivojlantirish

1.4. Modul. Sog'liqni saqlash tizimidagi islohotlar va amaldagi me'yoriy hujjatlar. Sog'liqni saqlash tizimini Davlat dasturlari, sog'liqni saqlash tizimi islohotlariga oid Prezident Farmonlari va Vazirlar Mahkamasining qarorlari. O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash tizimini isloh qilishni asosiy yo'nalishlari. Birlamchi tibbiy sanitariya yordamini isloh qilish. Onalik va bolalikni muhofaza qilish tizimini milliy modulini yaratish. Shoshilinch tibbiy yordamni samarali va to'liq tizimini yaratish. Aholiga ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish. Ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lgan kasalliklarga qarshi kurashish chora-tadbirlarini takomillashtirish. Sog'liqni saqlash tizimida yangi davr. Tibbiyot kadrlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish. Respublikada epidemiologik barqarorlikka erishish va uni ushlab turish. Davlat xususiy - sheriklik va tibbiyot turizmini rivojlantirish borasida islohotlarning mazmun mohiyati. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlarini Sirdaryo viloyatida joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi prezidentining qarori. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020 yil 12 noyabrdagi "Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi modeli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmlari. Sog'liqni saqlash tizimini tashkil etishning yangi moduli va davlat tibbiy sug'urtasi mexanizmining huquqiy asoslari. Sog'liqni saqlash tizimidagi me'yoriy hujjatlar.

1.5. Modul. Infekcion nazorat. Infeksiya haqida tushuncha. Epidemiologiya asoslari. Infekcion nazorat, maqsad va vazifalari. Shifoxona ichi infeksiyalari profilaktikasi. SanQvaM -0342-17, SanQvaM- 0317-15. Sanitariya epedimiologiya sohasida qo'llaniladigan me'yoriy hujjatlar. Ularning maqsadi, aholi salomatligini saqlash, kasallanishlarning oldini olish, aholining sanitariya-epidemiologik osoyishtaligi sohasidagi munosabatlarni tartibga solish. Sanitariya qoida va me'yorlari bo'yicha ish olib borish. Tibbiy chiqindilarni yig'ish, saqlash va yo'q qilish.

Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar haqida umumiy ma'lumotlar. Karantin va o'ta havfli yuqumli kasalliklar guruhiga kiruvchi kasalliklar, ularning profilaktikasi. O'ta havfli yuqumli kasalliklar aniqlanganda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar rejasi. OIV va OITS haqida tushuncha. Avariya holatlar haqida ma'lumot. Davolash profilaktika muassasalarida yuqumli kasalliklarning oldini olish va kamaytirishga qaratilgan profilaktika hamda epidemiyaga qarshi chora-tadbirlar o'tkazish. SanQvaM bo'yicha joriy va mukammal tozalash o'tkazish. Qo'llarga gigienik ishlov berish usullari, texnikasi va qo'llarni yuvish tartibi.

1.6. Modul. Shaxslar o'rtasidagi muloqot va tibbiy maslahat Jamiyat va bemorning salomatligi yo'lida halol mehnat qilish, har qanday sharoitda ham tibbiy yordam ko'rsatish. Bemorga diqqat e'tibor va g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish va o'zining barcha xatti-harakatlarida yuksak insoniy qoidalarga rioya qilish. Jamoada, individual va turli guruhlarda shaxslararo muloqot madaniyati. Kasbning oliyjanob an'alarini saqlash. Zamonaviy tibbiyot amaliyotida sezilarli e'tibor tibbiyot xodimlarining kasbiy ko'nikmalariga, bemorlar bilan ularning gender va madaniy xususiyatlarini hisobga olgan holda muloqot qilish qobiliyatiga qaratilmoqda. Genderning salomatlikka ta'siri. Genderga sezgir tibbiy maslahat va aloqa to'g'risida tushuncha. Ichki madaniyat qoidalari, intizomga rioya qilish. Jamoat mulki tushunchasi va unga ehtiyotkorlik bilan munosabatda bo'lish. Hamjihatlik va kollegiallik tuyg'ulariga rioya qilish. Neytral va xavfsiz muhitni yaratish. Salbiy munosabat va fikrlardan qochish. Tibbiy maslahatni hurmat va e'tibor bilan boshlash. Faol tinglash va empatiya. Tushunarli tildan foydalanish. Tibbiyot xodimining bemor bilan muloqot qilish qobiliyati. Muloqot ko'nikmalarining turlari va ularning bir-biri bilan o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatning asosiy tuzilishi va ko'nikmalarining o'zaro bog'liqligi. Tibbiy maslahatni tartiblashtirish. Noverbal tildan foydalanish. O'zaro tushunishga erishish: bemorning holatini inobatga olish. Samarali muloqotning xususiyatlari.

1.7. Modul. Sog'lom turmush tarzini shakllantirish mezonlari. Jismoniy faollik. Sog'lom turmush tarzini tashkil etish asoslari. Sog'lom turmush tarzini shakllantirishda maqsadli guruhlar

bilan ishlash. Atrof muhit va ekologik omillarning salomatlikka ta'siri, to'g'ri ovqatlanish prinsiplari, kun tartibini to'g'ri tashkil etish, jismoniy faollik va chiniqishning salomatlikdagi ahamiyati, zararli odatlarning organizmga ta'siri, tibbiy ko'riklarni tashkil etish va aholini jalb etish.

1.8. Modul. Favqulodda vaziyatlar va hayot uchun xavfli holatlarda birinchi yordam ko'rsatish. Favqulotda vaziyatlar haqida tushuncha. Favqulotda vaziyatlar tasnifi, uning turlari, kelib chiqish sabablari, manbalari. Jabrlanuvchilarni saralash tartibi. Tibbiy saralash (traj usuli) va evakuatsiya qilish. Jabrlanuvchini ahvolini baholash, asosiy hayotiy ko'rsatkichlarni (nafas, puls, ong, AD) aniqlash. Birlamchi tekshiruv (ABC algoritmi). Bemor uchun zarur vaziyatni yaratish. Terminal holat. Terminal holat bosqichlari. Terminal holat bosqichlari. Klinik va biologik o'lim belgilari. CPR – yurak-o'pka reanimatsiyasining nazariy asoslari. Kattalar va bolalarda yurak massaji va sun'iy nafas berishni o'tkazish algoritmi.

Tez tibbiy yordam chaqirish tartibi. Travmalar va o'tkir holatlarda birinchi yordam ko'rsatish tamoillari. Qon ketish turlari va jgut qo'yish. Sinish, chiqish, immobilizatsiya. Shok holati. Kuyish, cho'kish sovuq va issiqlik urishi. Transportirovka qoidalari.

2.1. Modul. Farmatsevtika asoslari. O'zbekistonda dorixona xizmatini tashkil etilishi va rivojlanishi. Farmatsevtika fani asoslari maqsad va vazifalari. Farmatsevtikaning rivojlanishiga hissa qo'shgan olimlar. O'zbekiston Respublikasida dorixona xizmatini tashkil etilishi. Dorixona turlari. O'zbekiston Respublikasida dorixonalarini ochish tartibi. Litsenziya haqida tushuncha. Farmatsevtik faoliyat haqida tushuncha. Farmatsevtik faoliyat turlariga litsenziya olish masalalari. Dorixonaning moddiy-texnika bazasi, xonalarining yangi zamonaviy anjomlar, yordamchi vositalar bilan jihozlanishi. Dorixonaning farmatsevt assistenti vazifalari, huquqlari. Dorixonalarda turli xildagi dori vositalarni tayyorlash. Dorixonalarda turli xil dorilarning tegishli qoida va tartib asosida saqlanishi. Dorilarning sifati va muddatiga nazorat etish masalalari. Dorixona ombori haqida va u yerda tovarlar harakatini tashkil qilish. Davolash-profilaktika muassasasi dorixonasi, uning vazifalari. Turli xildagi dorixonalar tomonidan olib boriladigan sanitariya tadbirlari.

2.2. Modul. Farmatsevtika menejmenti. Mahalliy ishlab chiqarilayotgan dori vositalari va ularga qo'yilgan talablar. Farmatsiya menejmenti fani va uning vazifalari, mohiyati, uning boshqa ijtimoiy fanlar bilan integratsiyasi. Menejment predmeti va izlanish uslublari. Menejment obyekt va subyekt. Menejment turlari. Respublikada farmatsevtik bozorni shakllanishi va rivojlanishi. Respublikada farmatsevtik ishlab chiqarish sohasini rivojlanishi, ishlab chiqarilayotgan dori turlari, ularga qo'yilgan talablar. Mahalliy ishlab chiqarilayotgan dori vositalari.

2.3. Modul. Lotin tili terminologiyasini farmatsevtika sohasida qo'llash. Lotin tili terminologiyasidan keng foydalanish. Dori vositalari, hamda retsept blankalari bilan ishlash. Lotincha-yunoncha termin-elementlarni umumiy ma'nosini bilish. Co'z birikmalarining ma'nosini to'g'ri tahlil qilish. Lotin tili fanini o'zlashtirish asosida lotin tili harflarini yozilishi va o'qilishini, a'zo nomlarini lotincha va yunoncha tarjimai, farmatsevtik terminlar haqida tushuncha. Terminlarni fonetik va grammatik jihatdan to'g'ri o'qish va yozish, ularni amaliyotda qo'llash. Retseptura bo'limining asosiy vazifalari. Retsept va uning tarkibiy qismlari. Retsept blankalari va ularni yozish tartibi.

2.4. Modul. Dori turlari texnologiyasi. Dorixonaga qo'yilgan talablar. Dori vositalarning organizmga ta'siri. Birinchi dorixonalarining ochilish tarixi. Dori turlari texnologiyasi fanining predmeti, maqsadi va rivojlanish tarixi. Dori vositasi, dori moddasi, zaharli va kuchli ta'sir etuvchi narkotik va psixotrop dorilari ro'yxati haqida tushuncha. Dori shakllarini sinflarga bo'linishi, ularni organizmga yuborish yo'llari. Tayyorlangan dori turlarini qadoqlash va yorliqlash, yorliqlarning turlari. Dori turlari: suyuq dorilar, eritmalar, suspenziyalar, emulsiyalar, yumshoq dori turlari. Linimentlar, surtma dorilar, pastalar. Kosmetologik kremlar. Steril dori turlari va aseptik sharoitda tayyorlanadigan dori shakllari. Inyeksion dorilar va ularning organizmga ta'siri.

2.5. Modul. Farmatsevtik kimyo. Dori preparatlarining sifatini nazorat qilishning zamonaviy usullari. Farmatsevtik kimyo fani haqida umumiy tushuncha. Kimyo, biologiya, farmatsiya fanlari bilan bog'liqligi. Davlat farmakopeyasi, farmatsevtik kimyo fanining, farmatsevt mutaxassislar tayyorlashdagi ahamiyati. Dori preparatlarining sifatini nazorat qilishni zamonaviy usullari. Dori

moddalarini tahlil qilish usullari: fizik, kimyoviy, biologik. miqdori va ekspress tahlil usullari, xromatografiya usullari. Refraktometriya usulida tekshirish. Organik birikmalar. Organik birikmalarning olinish manbalari va tabiiy, sun'iy usullari. Ularning tasnifi va nomenklaturasi. Saqlash sharoiti va barqarorligini ta'minlash choralari. Alitsiklik alkanlar. Spirtlar va aldegidlar. Karbon kislotalar va ularning amidli hosilalari. Aminokislotalar. Antibiotiklar. Antibiotiklarning ta'rifi, olinishi, kimyoviy tasnifi, ishlatilishi. Aromatik birikmalar. Dori moddalarini tahlil qilish usullari. Tahlilidagi umumiyliklar va xususiy reaksiyalar, qo'llanilishi va saqlanishi.

2.6. Modul. Farmakognoziya. Fitopreparatlar. Xalq tabobatida ishlatiladigan dorivor o'simliklar. O'zbekistonda farmakognoziya fanining rivojlanishi. Uning farmatsiya va tibbiyotdagi ahamiyati. Dorivor o'simliklarni botanik tuzilishiga qarab o'rganish. Yangi dorivor o'simliklarni izlab topish va ulardan yangi dorilarni ajratib olish bo'yicha ilmiy tadqiqot ishlari. Respublikada dorivor o'simliklar va ularning mahsulotlarini yig'ishni tashkil etish. Yig'ishning umumiy va o'ziga hos qoida va tartibi. Dorivor o'simlik mahsulotlarini o'ziga hos quritish va buning ahamiyati. O'simlik mahsulotlarini mezonlash, joylash va yorliqlashtirish. Dorivor o'simlik mahsulotlarini saqlash qoidasi, muddati. Ularga tashqi muhitning ta'siri. O'simlik mahsulotlarining zararkunandalari va ularga qarshi kurashish tadbirlari. Dorivor o'simlik mahsulotlarini tahlil qilib tekshirish usullari. Fito choylarning tarkibi va ularni organizmga ta'siri.

4. DASTURNI AMALGA OSHIRISHNING TASHKILY-PEDAGOGIK TA'MINOTI

4.1. O'quv bazalari: Respublika o'rta tibbiyot va farmatsevtika xodimlari malakasini oshirish va ularni ixtisoslashtirish markazi Shifokorlar ko'chasi-2, 14-uy, davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

Amaliyot bazasi: davolash profilaktika muassasalari qoshidagi o'quv bazalari.

4.2. Mashg'ulotlarni o'tkazish uchun zarur jihozlar ro'yxati:

Modul bo'yicha dars olib borish uchun nazariy, amaliy va seminar darslar o'tiladigan o'quv auditoriyalari.

Multimediali jamlanma: slaydlar to'plami bo'lgan rrt ko'rinishli ma'ruzalar, ekran, videofilmlar.

Klinik amaliy ko'nikmalarni mustahkamlash trening o'quv xonasi, mulyaj, fantom, mavzular bo'yicha turli jadvallar, tasviriy ko'rgazma va qo'llanmalar, tarqatmalar.

4.3. ADABIYOTLAR RO'YXATI:

4.3.1. Qonunchilik va meyoriy-huquqiy xujjatlar:

1.2020 yil 7 apreldagi "Tibbiy-sanitariya sohasida kadrlarni tayyorlash va uzluksiz kasbiy rivojlantirishning mutlaqo yangi tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ 4666-sonli qarori.

2.O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli "Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini tashkil etish bo'yicha meyoriy hujjatlarni yanada takomillashtirish to'g'risidagi" buyrug'i;

3.Sog'liqni saqlash xodimlari malakasini oshirish va ularni qayta tayyorlash tizimi faoliyatini tashkil etish va boshqarishga qo'yiladigan davlat talablari;

4.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 5.05.2017 yildagi "O'zbekiston Respublikasida tibbiy ta'lim tizimini yanada isloh qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2956-son qarori;

5.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 6.05.2019 yildagi № 4310-sonli "Tibbiyot va farmatsevtika ta'limi va ilm-fani tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qarori;

6. №377.13.07.2017y. "O'zbekiston Respublikasi aholisiga ko'rsatiladigan ixtisoslashtirilgan tibbiy yordamni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"

7. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risidagi qonuni";

8.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 7.12.2018 yildagi № 5590-sonli "O'zbekiston Respublikasi sog'liqni saqlash tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha kompleks chora-tadbirlar to'g'risida"gi Farmoni;

9.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2017-2021-yillarda mamlakatimizni rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasi" 07.02.2017 yildagi Farmoni;

10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Professional ta’lim tizimini yanada takomillashtirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 06.09.2019 yildagi Farmoni;

4.2.Tavsiya etiladigan adabiyotlar:

1.Xidoyatova Z.SH., Islomova M.Z, Saidova M.Y. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv-uslubiy ko‘rsatma 1-to‘plam Toshkent – 2009 yil.

2.Xidoyatova Z.SH., Islomova M.Z., Saipova D.T.Saidova, M.Y. Farmatsevtika ishini tashkil qilish fanidan amaliy mashg‘ulotlar uchun o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar 2-to‘plam Toshkent – 2014yil

3.O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2002 yil 15 aprel 177-sonli buyrug‘i “Dorixonona muassasalari tomonidan tayyorlanadigan va idishga joylanadigan dori vositalarini tashqi bezagiga doir qoidalarini tasdiqlash” haqida.

4.O‘zbekiston Respublikasi vazirlar mahkamasining 2017 yil 17 iyuldagi 31-37 sonli “Aholini dori vositalari va tibbiyot buyumlari bilan ta’minlash tizimini takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi qarori.

5.X.S. Zaynutdinov, R.Z. Ziyoyev, O.S. Isaxodjayeov, G.YE. Sodiqova «Farmatsiya ishini tashkil qilish va iqtisodiyoti» Toshkent, “Ilm Ziyoyev” nashriyoti, 2012 y.

6.Yusupov M.A.,Komilov A.M. «Farmatsiya ishini tashkil qilish va iqtisodiyoti» Toshkent, “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi”, 2004y. 7.Oxunova Z.S., G.A. Madraximova “Farmatsiya menejmenti” Toshkent, “Ilm Ziyoyev” nashriyoti, 2006 yil.

4.3.3 Elektron ta’lim resurslari:

<http://www.minzdrav.uz>

<http://www.Neuro.uz>

<http://www.laparoscopy.uz>

<http://www.Qonber.uz>

<http://www.recipe.ru>

5.YAKUNIY ATTESTATSIIYA

5.1. Yakuniy attestatsiyaga qo‘yiladigan talablar

Yakuniy attestatsiya O‘zbekiston Respublikasi Sog‘liqni saqlash vazirligining 2020 yil 15 iyundagi 160-sonli buyruq 3-ilovasidagi «Tibbiy-sanitariya va farmatsevtika kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish ta’lim muassasalarida tinglovchilarning kasbiy bilim va ko‘nikmalarini baholash to‘g‘risidagi Nizom» asosida o‘tkaziladi.